
TOSHLOQ FARZANDI TOSHKENT AMALIY FANLAR UNIVERSITETIGA GRANT ASOSIDA O'QISHGA QABUL QILINDI.

Toshloq tumanidagi 1-IDUMda tahsil olgan Tohirbek To'lanov Jizzax viloyatida o'tkazilgan Respublika fan olimpiadasida faxrli 5-o'rinni egallab Toshkent amaliy fanlar Universitetiga o'qishga qabul qilindi hamda 80 mln. so'm grant mablag'ini yutib oldi. Shu munosabat bilan kuni-kecha Toshloq tuman hokimi Abduqaxxor Djuraboyev ajratilgan grant mablag'lari hamda Xalq ta'limi vazirligining maxsus sertifikatlarini Tohirbek To'lanovning onasiga topshirdi. Tuman hokimi T.To'lanovning erishgan ulkan yutuqlari bilan tabrikladi. Farzandining ilm-fandagi yutuqlari uchun o'z minnatdorchiligini bildirib o'tdi.

Tohirbek To'lanov bundan tashqari nufuzli "Xalqaro matematika olimpiadasi" (IMO) ning saralashning I va II bosqichlarida g'olib bo'lib III bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdi. Yakuniy natijalarga ko'ra, T.To'lanov Xalqaro olimpiada ishtirokchisiga aylandi. U hozirda 2022 yilning 6-16 iyul kunlari Norvegiya davlatida o'tkaziladigan 63-Xalqaro matematika olimpiadasida ishtirok etish uchun Respublika terma jamoasi safida tayyorgarlik ko'rmoqda.

Respublika olimpiadasidagi munosib ishtiroki bilan Tohirbekni va uning ota-onasini hamda barcha fidoiy ustozlarini tabriklaymiz va kelgusi faoliyatida muvaffaqiyatlar tilab qolamiz.

2022-06-07 17:28:23